



O'SMIR YOSHDAGI BOLALAR UCHUN "MEN" TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI

Jo'martova O'g'iloy Baxtiyor qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7490816>

Annotatsiya: Ushbu maqola o'smir yoshdagi bolalarda "men" tushunchasini shakllanishi va bu tushunchaning o'smirlarning o'zligini anglashga yordam berishini asoslashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, individ, individuallik, I.A.Karimov, A.Avloniy, R.S.Nemov, K.G.To'laganova, N.M.Dalimova, B.G.Ananev.

Dunyoga kelgan har bitta inson avvalo shaxs bo'lib tug'ilib, voyaga yetadi. Shaxsning rivojlanishi haqida tushuncha. Shaxs individ, individuallik. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan. O'zining shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turuvchi muayyan dunyo qarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosidir. "Individ"-nima? Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi. Individ lotincha "individum" so'zidan olingan bo'lib "bo'linmas", "alohida shaxs", "yagona" degan ma'noni anglatadi. Bolaning "men"ligini anglashi taxminan 3 yoshdan paydo bo'ladi. Masalan, men, meniki, menga va hokozo. Ko'pchilik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "men" obrazi insonda tez hosil bo'lmaydi, balki butun umri davomida ta'sirlar natijasida yuzaga keladi. O'smir yoshdagi bolalar uchun "men" tushunchasi bir muncha qiyinroq bo'ladi. O'ziga nisbatan qiziquvchanlik nima ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o'smirlik davrida rivojlanadi. Shaxs tushunchasining murakkab va ko'p bo'lishiga qaramay mutaxassislar tomonidan "shaxs" ga umumiy ta'rif berib ko'rilgan. R.S.Nemov "Shaxs bu ijtimoiy tabiatga ega o'z mohiyatiga ko'ra, barqaror ijtimoiy aloqa va munosabatlari, o'zi va boshqalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan kishining axloqiy xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan psixologik tavsiflarga ega kishidir.

O'smir yoshlarga asosan 12-15 yoshdagi bolalar kiradi. Ularning eng muhim qiziqishlari telehitirishlarga qaratilgan. Televizorni har kuni 88% o'smir tomosha qiladi. Ularning oddiy kunini qanday o'tkazadi degan savolga insonlar tadqiqot o'tkazib ko'rishgan. 85% o'smir vaqtini o'z holicha o'tkazadi. 70% kino yoki televizor ko'radi. 50% sport bilan shug'ullanadi, 45% uxlab yoki yotib dam oladi. Shuningdek yomon baho olmaslik uchun maktabga boradiganlar 15% ini tashkil etadi.





O'smirlik davridagi qiyinchiliklarning oldini olishning eng ishonchli va foydali yo'lib bu uning biror narsaga to'g'ri qiziqishga erishish, faoliyat motivlarini mazmunliroq qilishdir. Masalan, shu davrda texnikaga qiziqib qolgan bola qiziqishini qondirish uchun shart-sharoitning yaratilishi, bekor qolmasligiga erishish, har bir harakatni rag'batlantirish, unga bir ish qo'lidan keladigan odamday munosabatda bo'lish katta pedagogik ahamiyatga ega. Uning qiziqishlarini bila turib, oldiga yangidan yangi maqsadlar qo'yish bola shaxsining rivojiga asosdir. Shundagina uning o'z "meni" to'g'risidagi tasavvurlari ijobiy, o'z-o'ziga bahosi obyektiv va adolatli bo'ladi, o'zining nimalarga qodirligi va kim ekanligi haqida yaxshi fikirlar paydo bo'ladi.

Shaxsning shakllanishida muloqatning ahamiyati to'g'risida psixolog olimlar o'z fikrini bayon qilganlar. Jumladan, psixolog B.G.Ananev "Odam bilishning predmeti sifatida" asarida bu masalani chuqur tahlil etgan. U bilimning turli elementlarini egallash muvaffaqiyatli o'zlashtirishning garovi ekanligini ta'kidlaydi. Bilimlarni egallash muloqot orqali amalga oshirilishini ham uqtirib o'tadi. Agar kishilar o'zaro bir-birlariga axborot uzatmasalar, tajribalarini muloqot orqali almashmasalar rivojlanmay qolishlari to'g'risida B.G.Ananevning fikrlari asoslidir.

Aynan bizning zamonda o'smir yoshdan o'tib olgan bolalar qanday bo'lishlari kerak? Bu savolga javoblarni birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "O'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'z kuchiga o'zi tanlagan yo'lining to'g'riligiga ishongan inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi. U jamiyatdagi fikirlar xilma-xilligidan cho'chimaydi, balki zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarga hayot haqiqatiga suyangan holda, har qanday g'arazli niyat, tahdid va intilishlarni fosh qilishgan bo'ladi" - deb bejiz aytmaganlar.

A.Avloniyning fikricha: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsalardir. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli kasalsiz jasad lozimdir".

O'zbekistonda olib borilgan o'smirlik davridagi bolalarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlardan biri, G.Q.To'laganova rahbarligida N.M.Dalimova tomonidan olib borilgan "Kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlarning psixologik diagnostikasi va korreksiyasi xususiyatlari" mavzusidagi tadqiqot ham qiziqish uyg'otadi. N.M.Dalimovaning ta'kidlashicha, kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlar oilasida, shaxslararo munosabatlarda, ijtimoiy muhitga moslashishda, maktabda birmuncha qiyinchiliklarga duch keladi. Shuningdek muallif bolalar kompyuterdan oddiy kunlari 2 soatdan ortiq, dam olish kunlari 3 soatdan





ortiq foydalanmasligi zarurligini ta'kidlagan. O'smir o'ynayotgan o'yinlarda aqliy rivojlantiruvchi va mantiqiy o'yinlarning ko'proq bo'lishi maqsadga muvofiq. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam. O'z-o'zini tarbiyalashda o'g'il bolalar kuchli, erkin, e'tiborli, jasur, qizlar esa o'ta ko'nikuvchan, jiddiy va kamtar bo'la boshlaydi. Bugungi kunda o'mir yoshlar bilan ishlaydigan tashkilotlarni ko'paytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni ota-onasi o'z zimmasiga olib farzandiga ko'proq e'tibor qaratishi kerak. O'smir yoshdagi bolalar uchun "men" degan tushunchani ertaroq shakllantirish uchun uni ko'proq badiiy kitoblar o'qishga jalb qilish bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish kerak. Yana bir muhim narsa shuki, ularga har bitta narsaning topilishi osonlik bilan amalga oshmasligini, uning qadriga vaqtida yetish kerakligini, uning ongiga bolalikdan singdirish lozim. O'smirlik davridan yaxshi o'tib olgan insonlar, ruhan sog'lom, aqlan yetuk bo'lib voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Science and education" scientific journal. ISSN2181-0842. 2022. May.
2. S.R. Kamolova "Ijtimoiy psixologiya" T. 2017
3. D. Oribbayeva "Shaxs psixologiyasi. Maxsus psixologiya. Iqtidorli bolalar psixologiyasi" Namangan, 2019 6-bet.
4. S.R. Kamolova "Ijtimoiy psixologiya" T. 2017
5. V. Karimova "Psixologiya" Toshkent, 2002, 148-b
6. M.A. Maxsudova "Muloqot psixologiyasi" Turon iqbol 2006.
7. "Science and education" scientific journal . ISSN2181-0842. 2022. may.
8. Z. Nishonova "Rivojlanish psixologiyasi" -T. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati". 2018. 322-404b.

